

Nazarov Didar Maxsat o'g'li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
“Geografiya” yo'nalishi 2-bosqich talabasi

NAMANGAN ERKIN IQTISODIY ZONASI VA UNING IQTISODIY GEOGRAFIK O'RNINI BAHOLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada Namangan viloyatida o'z faoliyatini olib borayotgan Namangan EIZsi haqida ma'lumot beriladi va fikr mulohazalar yuritiladi. Iqtisodiy geografik o'rin tushunchasiga alohida ta'rif berib o'tiladi va uning Namangan EIZ uchun qulayliklari va omillari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy zona, maxsus erkin iqtisodiy zona, iqtisodiy geografik o'rin, ochiq bozorlar, qonunlar, asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari

Nazarov Didar Maxsat o'g'li
Во имя Абу Райхана Беруни
Ургенчский государственный университет,
Студент 2-го курса направления “География”

ОЦЕНКА СВОБОДНОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЗОНЫ “НАМАНГАН” И ЕЕ ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ ПОЛОЖЕНИЯ

Анотация. В данной статье представлены информация и мнения о ОЭЗ “Наманган”, действующей в Наманганской области. Будет дано отдельное определение понятия экономико-географического положения и проанализированы его удобства и факторы для Наманганской ОЭЗ.

Ключевые слова: свободная экономическая зона, особая свободная экономическая зона, экономико-географическое положение, открытые рынки, законы, основные производственные отрасли

Nazarov Didar Maxsat o'g'li
In the name of Abu Rayhon Beruniy
Urgench state university,
student of the 2 nd stage of the “Geography” course

EVALUATION OF NAMANGAN FREE ECONOMIC ZONE AND ITS ECONOMIC GEOGRAPHICAL LOCATION


Abstract. This article provides information and opinions about the Namangan FEZ operating in the Namangan region. A special definition is given to the concept of an economic geographical location, and its facilities and factors for the Namangan FEZ are analyzed.

Key words: free economic zone, special free economic zone, economic geographical location, open markets, laws, main production sectors

KIRISH. **Erkin iqtisodiy zona** – yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatdosh, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni faol jalb etish, shuningdek ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport, ijtimoiy infatuzilmani va logistika xizmatlarini rivojlantirishni ta'minlash maqsadlarida tashkil etiladigan hudud.

Xo'sh maxsus iqtisodiy zona nima va uning erkin iqtisodiy zonadan ajralib turadigan farqi nimada? **Maxsus iqtisodiy zona** – tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalarni, texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida mahsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo'lgan hudud. Bu ikkala tushunchaning farqi shundaki, EIZlar asosan xalqaro savdo va eksportga qaratilgan bo'lib, bojxona cheklovlari minimal darajada paytirilgan yoki umuman olib tashlangan. MIZlarda esa mamlakat ichidagi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan bo'lib, ularda alohida qonuniy tartib va cheklovlar mavjud bo'ladi.

Quyida O'zbekistonda faoliyat yurituvchi erkin iqtisodiy zona turlarini keltirib o'tamiz:



1-rasm. O'zbekistonda faoliyat yurituvchi erkin iqtisodiy zona turlari

ASOSIY QISM. Namangan viloyatining umumiy yer maydoni 7,4 ming km.kv ni tashkil etadi. Viloyatning sanoat ishlab chiqarish hajmi 957,1 mln AQSH dollar bo'lib, shundan yillik eksport hajmi 357,4 mln AQSH dollarni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2018-yil 20 avgustdagi "Namangan" erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF - 5517-sonli Farmoniga muvofiq Namangan viloyatining Chust tumani hududida "Namangan" erkin iqtisodiy zonasi tashkil etilgan. Boshqaruv xodimlari soni 4 nafardan iborat bo'lgan "Namangan" erkin iqtisodiy zonasi direksiyasi davlat unitar korxonasi tashkil etiladi.

Ha albatta ushbu erkin zona ham davlatimiz rahbari tomonidan hududni rivojlantirish uchun to'g'ri qaror qabul qilingan va asosan erkin qonunlarining mazmuni quyidagilardan iborat.

Erkin iqtisodiy zona qonunlari bir nechta umumiy jihatlarga ega:

- a) Erkin iqtisodiy zona ta'riflari va ularning turlari;
- b) Maqsadlar va investitsiyalarni jalb qilish;
- c) EIZ tashkil etish va faoliyat yuritish shartlari;

d) Institutlar bilan bog'liq muammolar.

EIZ qonunlarining 90 foizidan ko'progida umumiy ta'rif standartlari berilib o'tilgan. Ba'zan 30 % dan ko'prog'i esa EIZ larning aniq turlariga tegishli ekanligi ham ko'rsatib o'tilgan. Yuqorida nazarda tutilgan "Namangan" EIZ uchun ham aniq qonun hujjatlari belgilab berilgan.

Ushbu erkin iqtisodiy zona uchun 2019-2020-yillar oralig'ida saqlash xarajatlari va direksiyaning ustav fondini shakllantirish uchun 1 milliard so'm mablag' ajratiladi. Ayni paytda EIZ hududining maydoni 481 gektar bo'lib, bu yerda umumiy qiymati 637,7 million AQSH dollarlik 27 ta loyiha amalga oshirilmoqda. EIZ rezidentlari 30 yil muddatga yer, mol-mulk, suv resurslaridan foydalanish soliqlari, QQS va bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod qilinadi.

Namangan EIZ si dunyoning bir qancha ochiq bozorlarga yaqin va ushbu bozorlarga bo'lgan masofani quyidagi keltirilgan jadval orqali ko'rishimiz mumkin:

1-jadval. Namangan EIZga yaqin bo'lgan ochiq bozorlar va masofa uzunligi. Masofa Google Earth ilovasi orqali aniqlandi. Ushbu jadval muallif tomonidan tuzildi.


Tartib raqami	EIZ ga yaqin bo'lgan ochiq bozorlar	Masofa
1	Tojikiston (Dushanbe)	240 km
2	Qirg'iziston (Bishkek)	406 km
3	Afg'oniston (Kabul)	858 km
4	Turkmaniston (Ashg'obot)	1053 km
5	Hindiston (Yangi Dehli)	1053 km
6	Pokiston (Islomobod)	1199 km
7	Qozog'iston (Nur-Sulton)	1346 km
8	Eron (Tehron)	2424 km
9	Xitoy (Pekin)	2873 km
10	Azarboyjon (Boku)	3137 km
11	Rossiya (Moskva)	3302 km

Namangan erkin iqtisodiy zonasi hududiy bo'linishi jihatdan 3 ta massivdan iborat. Bular Sabzor, Zarafshon va Ibrat massivlari hisoblanadi. Xalqaro aeroportga eng yaqini Ibrat massividir.

Namangan EIZ uchun hududda amalga oshirish qulay bo'lgan ustuvor ishlab chiqarish tarmoqlari avtomobil ehtiyot qismlari, to'qimachilik va kiyim-kechak mahsulotlari, yuqori texnologiyali qurilish materiallari, plastmassa va rezinani qayta ishlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, logistika va boshqa turdagi xizmatlardir.

Geografiya fanida geografik o'rin tushunchasining 3 ta turi mavjud bo'lib, bular tabiiy, iqtisodiy va siyosiy geografik o'rin tushunchalariga ajratiladi. Aynan hozir biz iqtisodiy geografik o'rin tushunchasiga to'xtalib o'tamiz.

Iqtisodiy geografik o'rin – o'rganilayotgan ob'yekt (korxona, shahar, viloya yoki davlat) ning o'z atrofida, undan tashqarida joylashgan geografik ob'yektlarga (tog', daryo, dengiz, chegara, konlar, yo'l va b.) nisbatan tutgan o'rnini va bu ob'yektlarni ko'rsatish demakdir. Pastda ko'rsatilgan grafik organayzer orqali Namangan EIZning iqtisodiy geografik o'rnini belgilab beruvchi omillarni kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari EIZning iqtisodiy geografik o'rnini baholashda mehnat resurslari va infrastrukturaning viloyatda yaxshi rivojlanib borayotganligini ta'kidlab o'tish lozim. Albatta mehnat resurslarga bo'lgan talab esa aholining kundan-kunga o'sib borayotganligi tufayli hech qanday muammolarni keltirib chiqarmaydi.



2-rasm. Namangan EIZning iqtisodiy georafik o'rnini baholash.

XULOSA. Namangan viloyati mamlakatimizning go'zal go'shalaridan biri bo'lgan Farg'ona vodiysida joylashgan. Ushbu viloyat aholi soni boyicha 5-o'rinni qayd etadi. Ko'rinib turibdiki ushbu aholini ish bilan ta'minlash, eksportga yo'naltirilgan hamda importni o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsad qilinib Namangan EIZ tashkil etilgan. Ushbu erkin iqtisodiy zonaning iqtisodiy geografik o'rniga nisbatan xulosa beradigan bo'lsak, dunyoning ochiq bozori hisoblangan Xitoy, Rossiya, Eron, Qozog'iston davlatlariga yaqinligi va ushbu davlat fuqarolari asosiy xorijiy investorlardir. Bundan tashqari EIZ joylashgan geografik hududi xalqaro aeroportlarga yaqin va infratuzilmani yaxshilash uchun ham qulay muhit yaratadi. Yuqorida nazarda tutilgan qonunlar va qarorlar esa EIZni adolatli tarzda faoliyat yuritishga va investorlarning o'z huquq va erkinliklarini ta'minlash imkoniyatini beradi deyishimiz mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. A. Soliyev, N.K. Komilova, S.I. yanchuk, SH.Z. jumaxanov, F.T. Rajapov. Ijtimoiy va iqtisodiy geografiya. Toshkent "Noshir" 2019.
2. Nazarov Didar. American journal of multidisciplinary bulletin. Urgut free economic zones and its current activites 2025.

3. Amanov A.K., Nazarov D.M. Экономика и социум. Zarafshon iqtisodiy rayonidagi erkin iqtisodiy zonalar 2025 1 (128) 2025.
4. Amanov A.K., Nazarov D.M. Экономика и социум. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidagi maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va klasterlarning iqtisodiy geografik xususiyatlari, 02 (117) 2024.
5. Amanov A.K., Nazarov D.M. Экономика и социум. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidagi erkin iqtisodiy zonalari va ularning rivojlantirish tendensiyalari, 02 (117) 2024.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. "Namangan" erkin iqtisodiy zonasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida 1054-soni 2018.
7. For a detailed discussion of definitions and terms used across countries, see Bost 2019.